

**Journal of**  
**Natural  
science**

**No5  
2021**

**<http://natscience.jspi.uz>**



<u>ТАХРИР ҲАЙЪАТИ</u>	<u>ТАХРИРИЯТ АЪЗОЛАРИ</u>
<p><b>Бош муҳаррир –</b> У.О.Худанов т.ф.н., доц.</p> <p><b>Бош муҳаррир ёрдамчиси-Д.К.Мурадова,</b> PhD, доц.</p> <p><b>Масъул котиб-</b> Д.К.Мурадова</p>	<ol style="list-style-type: none"><li>1. Худанов У.О. – ЖДПИ Табиий фанлар факултети декани, т.ф.н., доц.</li><li>2. Шылова О.А.-д.х.н., профессор Института химии силикатов им. И.В. Гребенщикова Российской академии наук (ИХС РАН)</li><li>3. Маркевич М.И.-ф.ф.д. проф Белорусия ФА</li><li>4. Elbert de Josselin de Jong- профессор, Niderlandiya</li><li>5. Кодиров Т- ТТЕСИ к.ф.д, профессор</li><li>6. Абдурахмонов Э – СамДУ к.ф.д., профессор</li><li>7. Сманова З.А,-ЎзМУ к.ф.д., профессор</li><li>8. Султонов М-ЖДПИ к.ф.д,доц</li><li>9. Яхшиева З- ЖДПИ к.ф.д, проф.в.б.</li><li>10. Рахмонкулов У- ЖДПИ б.ф.д., проф.</li><li>11. Мавлонов Х- ЖДПИ б.ф.д., проф</li><li>12. Абдурахмонов Ғ- ЎзМУ фалсафа фанлари доктори (кимё бўйича) (PhD), доц</li><li>13. Хакимов К – ЖДПИ г.ф.н., доц.</li><li>14. Азимова Д- ЖДПИ фалсафа фанлари доктори (биология бўйича) (PhD), доц</li><li>15. Юнусова Зебо – ЖДПИ к.ф.н., доц.</li><li>16. Гудалов М- ЖДПИ фалсафа фанлари доктори (география фанлари бўйича) (PhD)</li><li>17. Мухаммедов О- ЖДПИ г.ф.н., доц</li><li>18. Хамраева Н- ЖДПИ фалсафа фанлари доктори (биология фанлари бўйича) (PhD)</li><li>19. Рашидова К- ЖДПИ фалсафа фанлари доктори (кимё бўйича) (PhD), доц</li><li>20. Мурадова Д- ЖДПИ фалсафа фанлари доктори (кимё фанлари бўйича) (PhD), доц</li></ol>
<p><b>Муассис-Жиззах давлат педагогика институти</b></p>	
<p>Журнал 4 марта чиқарилади (ҳар чоракда)</p>	
<p>Журналда чоп этилган маълумотлар аниқлиги ва тўғрилиги учун муаллифлар масъул</p>	
<p>Журналдан кўчириб босилганда манбаа аниқ кўрсатилиши шарт</p>	

Жиззах давлат педагогика институти Табиий фанлар факултети

Табиий фанлар-Journal of Natural Science-электрон журнали

[/http://www.natscience.jspi.uz](http://www.natscience.jspi.uz)

**O‘RTA OSIYO FLORASIDA TARQALGAN MAVRAK (*SALVIA OFFICINALIS*) TURINING DORIVORLIK XUSUSIYATLARI VA O‘ZBEKISTON FLORASIDA TUTGAN O‘RNI**

*G.D.Soliyeva*- o‘qituvchi,

*M.S.Aliboyev*- talaba

**Jizzax davlat pedagogika instituti**

**Annotatsiya:** Ushbu maqola O‘rta Osiyo florasida tarqalgan dorivor o‘simlik hisoblangan Mavrak (*S.officinalis*) turning tarqalishi, dorivorlik xususiyatlari, uning oziq-ovqat sanoatida tutgan o‘rni, tayyorlanish texnikasi haqida ma’lumotlar keltirilgan.

**Kalit so‘zlar:** Galin preparati, saponinlar, sklariol, damlama, arpabodiyon urug‘i, flora, pielit, sistit, gepatit, entrit, gastroentrit

**Аннотация:** В статье представлена информация о лечебных свойствах вида *S.officinalis*, вида лекарственного растения, встречающегося во флоре Средней Азии.

**Ключевые слова:** Галин, сапонины, склариол, настойка, семена, фенхеля, флора, пиелит, цистит, гепатит, энтрит, гастроэнтерит

**Abstract:** This article provides information on the medicinal properties of the species of *S.officinalis*, a species of medicinal plant found in the flora of Central Asia.

**Keywords:** Galin, saponins, sclariol, tincture, fennel seeds, flora, pyelitis, cystitis, hepatitis, entritis, gastroenteritis.

Oziq-ovqat sanoatining asosiy maqsadi oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishdir. Odamlar iste’mol qiladigan deyarli barcha oziq-ovqatlar sanoatda qayta ishlanadi. Shuning uchun Mavrakning o‘simligini dorivorlik xususiyati sababli unga bo‘lgan talab sanoatda doimiy ravishda oshib bormoqda.

Mavrak yoki xuttan - bo‘yi 100 sm gacha, ko‘p yillik o‘tsimon o‘simlik. Ildizi - kam tarmoqlanadigan o‘q ildiz. Poyalari to‘rt qirrali, qizg‘ish - binafsha rang tusda, ustki qismi bezli tukchalar bilan qoplangan. Barglari qarama - qarshi joylashgan, tuxumsimon shaklda chetlari tishli bandlari bor. Poyasining uchiga tomon barglari kichirayib bandi kalta tortib boradi. Gullari pushti yoki oq rangda bo‘lib, to‘p gullar hosil qiladi, bezchalaridan o‘ziga xos shilimshiq chiqadigan bo‘lgani uchun yopishqoq bo‘ladi. Mevasi - qo‘ng‘irjigarrang tusda silliq, yumaloq bo‘ladigan to‘rt qo‘shaloq yong‘oqcha. Iyun – avgust oylari gullab, mevalari avgust – sentabrda oylari pishib yetiladi .

**Geografik tarqalishi.** Bu o‘simlik O‘rta Osiyoda tog‘lardagi butazorlar orasida daralar, vohalar va qirlarda aksari toshloq yerlarda o‘sadi. Kavkaz, Qrim, Ukrainaning Janubida ham uchraydi.

**Ishlatiladigan organlari.** Yer ustki qismi, barglari to‘pguli. To‘pgulidan efir moyi olinadi.

**Kimyoviy Tarkibi.** *S.officinalis* ning to‘pgullarida 0,58% gacha efir moyi, o‘tida kumarinlar filafonoidlar biroz miqdorda, efir moyi saponinlar, seklareol va boshqa moddalar bor.

**Ta’siri va ishlatilishi.** Xalq tabobatida Mavrak o‘simligining gullari va barglaridan tayyorlangan damlamani bronxidlar, pielit, sistit, gepatit, entrit, gastroentrit me‘da yara kasalliklarinin davolashda ishlatiladi, stamotitlar, anginalarda og‘izni chayish uchun, teri kasalliklari va quyuq yaralarga surtma sifatida ishlatiladi. Mavrak gullaridan tayyorlangan qaynatmalardan yurak o‘ynog‘i va quvvatsizlikka foydalaniladi. Mevalarini qovurib bolalarda qon aralash ichi ketganda, yanchilgan kukun holida mevalarini moyga aralastirib yara va jarohatlarni bitishida surmalar tayyorlaniladi. Zamonaviy tabobatda mavrakdan tayyorlangan galen preparatlar og‘iz bo‘shlig‘i, burun-halqum va yuqori nafas yo‘llarining yallig‘lanish kasalliklarida, branxidlar, branxial astma gepatitlar, xolisistlar, me‘da va o‘n ikki barmoq ichakning yara kasalligi, sistitlar, peilitlarda ishlatiladi.



Mavrak terlashni kamaytiradi shuning uchun odam ko‘p terlayveradigan mahalda klimaktrik davrda qo‘llaniladi. Bundan tashqari qon to‘xtatadigan va yallig‘lanishga qarshi ta’sir etadigan vosita tariqasida, shuningdek gipertoniya kasalligi, titroq falaj mahalida, markaziy nerv sistemasini tinchlantirishda dori sifatida ham ishlatiladi.

**Damlamalar tayyorlash va ishlatish:**

1. Mavrak barglaridan 10gr (2osh qoshiq) miqdorda olib , sirlangan idishga solinadi. Ustiga 200ml qaynab turgan suv quyilib, idishi bilan qaynab turgan suvga 15 daqiqa solib qo‘yiladi, keyin undan olinib , uy haroratida kamida 15 daqiqa sovutiladi, yaxshilab suzib olinib, bu damlama ustiga hajmi 200 ml ga kelguncha qaynagan suv quyiladi .Uni og‘iz va tomoqni chayish uchun ishlatiladi.

2. 10 gr da mavrak barglari arpabodiyon urug‘i va qarag‘ay kurtaklari ,200gr dan altay ildizi bilan chuchukmiya ildizini olib ,ustiga qaynab turgan 1 stakan suv quyiladida 30-40daqiqa damlab qo‘yiladi, lekin keyin suzib olinadi va bronxoektaktik kasalligida bu damlamani kuni bo‘yi 3 qismga bo‘lib ichiladi.

Bu o‘simlik o‘zining xususiyatlari va dorivorligi bilan O‘rta Osiyo florasida muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Undan xalq tabobati va tibbiyotda keng foydalaniladi .Immunitetni ko‘tarish va virusli kasalliklarni oldini olishda uning turli qismlaridan tayyorlangan damlama va dori vositalari keng qo‘llaniladi.

Xulosa qilib aytganda, bu o‘simlik o‘zining xususiyatlari va dorivorligi bilan oziq ovqat sanoatida, O‘rta Osiyo florasida muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Undan xalq tabobati va tibbiyotda keng foydalaniladi. Immunitetni ko‘tarish va virusli kasalliklarni oldini olishda uning turli qismlaridan tayyorlangan damlama va dori vositalari keng qo‘llaniladi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Xolmatov X.X. va boshqalar Ruscha-lotinja-o‘zbekcha dorivor o‘simliklar lug‘ati, Toshkent, 1992.
2. Xolmatov H.X., Ahmedov O. Farmakognoziya. - 1,2 qism. - Toshkent.: Fan, 2007.
3. Murdaxayev Yu.M. O‘zbekistonda vatan topgan dorivor o‘simliklar. Toshkent, 1990.
4. Musayev B. S. Agrokimyo. Toshkent, 2001 9. Справочник по лекарственным культурам. Воронеж, 1963.